

## CHO'LPON HIKOYALARIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

## ИДЕИ ПРОСВЕТЛЕНИЯ В РАССКАЗАХ О ПАСТЫРЯХ

## ENLIGHTENMENT IDEAS IN CHOLPAN'S STORIES

**Jamoliddinova Shohsanam**

*FarDU o'zbek tili yo'nalishi*

*3-bosqich talabasi,*

**Maxmidjonov Shoxruxbek**

*FarDU o'qtuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa qo'shgan Cho'lpon ijodida hikoyalarining o'рни, ularda aks etgan ma'rifatparvarlik g'oyalari xususida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Adabiyot, muhit, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, jaholat, ilmsizlik.*

**Аннотация:** *В этой статье рассказывается о роли рассказов в творчестве Чулпана, внесшего значительный вклад в развитие узбекской прозы нового времени, отраженных в них просветительских идеях.*

**Ключевые слова:** *Литература, среда, джадидизм, просвещение, невежество, ненаучность.*

**Annotation:** *This article will talk about the role of his stories in Chulpan's work, which made a significant contribution to the development of new era Uzbek prose, about the ideas of the Enlightenment reflected in them.*

**Keywords:** *Literature, environment, dynamism, enlightenment, ignorance, ignorance.*

Bu maqolani yoritishdan avval ma'rifatparvar, ma'rifatparvarlik kabi so'zlarning ma'nolarini o'rganishimiz kerak. Ma'rifatparvar - ma'rifat uchun kurashuvchi, ma'rifat homiysi va tarafdori. Ma'rifatparvarlik esa, jamiyat hayoti, uning ma'naviy – ma'rifiy soalarida namoyon bo'ladigan jaholatga, ijtimoiy – siyosiy johillikka zid bo'lgan ijtimoiy – falsafiy va ommaviy – demokratik harakatlarni ifodalaydi. Dastlab ma'rifatparvarlik g'oyalari Yevropada rivojlanib, keyinchalik esa Osiyo davlatlariga kirib kelgan. Bu ma'rifatparvarlikni yoyishda jadidlarimiz katta jonbozlik ko'rsatishgan. Ular o'z asarlari orqali xalqni ilmi qilishga, o'zligini tanishga, ularning madaniyatini rivojlantirishga, ma'rifatli qilishga harakat qilishgan. Darhaqiqat, jadid bobolarimizning asarlari mazmuniga tobora chuqur kirib borara ekanmiz, bu

asarlarning dunyoga kelganiga qariyb yuz ellik yildan oshgan bo'lsa-da, ularda ko'tarilgan muammolar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganini ko'ramiz.

XX asar boshlarida murakkab vaziyatni aks ettirgan adabiyot boshqa barcha barcha davrlar adbiyotidan keng ommani uyg'otish, xalqning o'rganib qolgan past turmush darajasidan chiqarish, millat, xalq manfaatlarini o'ylash, o'zbek xalqining ilmiy salohiyatli xalqlar qatorida ko'rishni istash kabi g'oyalar ilgari surilganligi bilan farq qiladi. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi ijodkorlarimizning barcha asarlarida xalqni ma'rifatli qilish, uning tamaddunuga yo'l ochish g'oyasi yotadi. Bu ijodkorlarimiz orasida Cho'lpon butun umrini, hayotini millatga tikkan va shu yo'lda yashab o'tgan ijodkor edi. U ko'plab hikoyalarida bu g'oyalarni ilgari surgan. Uning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" kabi hikoyalarida ham aynan ziyoli, o'qimishli kishilarning jaholat qurboni bo'lganliklari aks etgan. Cho'lpon o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarida jaholatning qanchalik daxshatli og'riq, tuzalmas kasallik ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Adibning "Do'xtir Muhammadyor" hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu hikoya "Sadoi Turkiston" gazetasida 1914-yilning ikkinchi yarmida bosilib chiqqan va o'zbek ma'rifatchilik adabiyotida katta voqea bo'lgan. Turkiston taqdiri haqida yonib, o'rtanib o'ylash, xalqni jaholat botqog'idan, nodonlik iskanjasidan qutqruvchi najot yo'lini izlash hikoyaga alohida joziba baxsh etgan. Bu hikoyada xalqning ilmsizligi, ularning omiligi, bularning orqasidan jaholat botqog'iga botganliklari ko'rsatilgan. Hikoya qahramoni bo'lmish Hoji Ahmad ko'plab davlatlarga sayohat qilgan, tillarni o'rgangan, lekin o'zining nodonligi sabab bo'lib sayohatlarda ko'p mashaqqat chekkan. U jaholat va nodonlikni yomon ko'rgan. Shu sababli ham o'g'li Muhammadyorni o'qitmoqchi bo'ladi. Hukumat maktablariga bermaqchi bo'ladi. Lekin moddiy tomondan qiynalganligi sabab shaharning mo'tabar odamlari yoniga boradi. Lekin ular Hoji sartaroshning yuziga eshik yopishadi. Cho'lpon ham huddi shu yerda o'zini qiynagan muammolarni o'rtaga tashlaydi. Nima sababdan ular yordam bermadi, yoki ularning mablag'i yo'qmi, ularning ham ahvoli nochormi kabi savollar beradi. Bularning sababi shuki, odamlar ma'rifatdan uzoq, hamma joyda jaholat turkistonliklarning, musulmonlarning taraqqiy topishiga xalaqit berayotgan asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. Xalq shu qadar johillik, ilmsizlik botqog'iga botgan ediki, boyvachcha bolalar o'qish o'rniga qimor o'ynashadi, ichkilik ichishadi. Qimorbozlar pul talashib bir-birini o'ldirishadi. Bir musulmon birisi bilan urishib burnini qonatadi, bir musulmonni poyezd ma'murlari tutib olib uradi. Bir musulmon xurjunini yo'qotgan, yana biri esa uquvsizligi sababli o'z boradigan stansiyasining nomini bilmay, boshqa stansiyaga bilet olib qo'ygan.

Bu holatlar orqali adib xalq qanchalik ilmsizlikning eng tubida ekanlikarini ko'rsatib bergan. Jaholat oqibati bo'lmish bunday noxush hodisalar har qadamda uchraydi va butun jamiyatning g'oyat ayanchli hayot manzaralari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Muallif hikoya davomida ma'rifatli, madaniyatli yurtlar haqida ham tanishtirib, ula ilmda qanchalik yuksak ekanini ko'rsatib boradi. "Jamiyati hayriya" orqali Muhammadyorga ilm olishida yordam berishadi. Muhammadyor ham ilm olishda to'xtamasdan harakat qiladi va buning natijasi o'laroq do'xtir maqomini oladi, "xodimi millat" tarzida shuhrat topadi. Yozuvchi bu bilan insonni ilm yo'lida to'xtamasdan harakat qilishga chorlaydi. "Ilmni Xitoyga borib bo'lsa ham talab qilinglar" deganlaridek Muhammadyor ham huddi shu yo'ldan borib ilm yo'lida jonbozlik ko'rsatadi.

Adibning yana bir hikoyasi bo'lmish "Qurboni jaholat" asarida ham ilmsizlik, jaholat qoralangan. Bu hikoyada ikki xil voqeani qarshilantirish orqali kitobxonlarga ta'sir o'tkazishga harakat qilingan. Bunda Eshmurod hamda Mo'minjon obrazlari o'zaro solishtirilgan. Mo'minjonga o'xshash jaholat botqog'iga botgan insonlarni ma'rifatlantirish jamiyatning asosiy muammosi ekanligi tasvirlangan. Eshmurod va Mo'minjonning suhbatida davomida yangicha bilim olishning zaruriyligi, eskicha o'qitishning yaramasligi haqida fikrlar ko'rsatiladi.

Asar qahramonlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Eshmurod ilmga tashna odam, uning otasi esa aksi. U gazeta o'qimaydi, undan ko'ra jangnomani afzal biladi. Shuning uchun ham johil-u nodon. Johilligi shunchalarki, "eshon domlaning o'g'li" bo'lmish Mo'minjonning o'g'rilik qilishi mumkinligiga ishonolmaydi-yu, o'z farzandini o'lasini qilib "urib tashlaydi". Mingboshini esa gazetada faqat saylov haqidagi gaplarga qiziqtiradi, boz ustiga, bachchabozlik illatiga yo'liqqanlardan.

Bu asar qahramonlari xalqning qanchalik ma'rifat yo'lida oqsoq ekanligini ko'rsatadi. Shunchalik orqada ediki, begunoh, aybsiz bo'lgan Eshmurodga tuhmatlar qilib, uni jaholatning qurboniga aylantirishadi. Aybsiz aybdor bo'lib qurbonga aylanadi.

O'sha davrda ham asar qahramoni Eshmurod kabi jaholatga qurbon bo'lgan shaxslar juda ko'p bo'lgan. Ular yozuvchi, shoir, ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatuvchi jadidlar hisoblangan. Cho'lpon esa o'shalarning hayotini bu hikoyasi orqali tasvirlagandek bo'ladi.

Adibning har ikki hikoyasida ham ilmsizlik, jaholat, ma'rifatparvarlik uchun kurash ustunlik qiladi. U har bir insonni ilm olishga chorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adibning har ikki hikoyasida ham ilmsizlik, jaholat, ma'rifatparvarlik uchun kurash ustunlik qiladi. U har bir insonni ilm olishga chorlaydi.

Cho'lpon hikoyalari zamon va makon tanlamaydi. Uning har bir hikoyasi bugungi davrda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Har bir g'oyasi bugungi kun muammolariga ham daxldor hisoblanadi. Shuning uchun ham Cho'lponning asarlari adabiyot olamida o'z mavqeini yo'qotmasdan kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov. D. Cho'lpon nasri poetikasi. - Toshkent, 2004.
2. Karimov. N, Mamajonov. S, Nazarov. B, Normatov. U, Sharafiddinov. O. XX asr O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent, 1999.
3. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
4. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.
5. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 520-524.
6. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. Modern Science and Research, 2(6), 1231-1235.
7. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. ИНТЕРНАУКА, (15-3), 75-76.
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
9. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
10. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM"ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. Nazariy Va Amaliy Fan, (5), 590-592.
11. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.
12. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.

13. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
14. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
15. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
16. Oripova,, G. , & Mirzajonova,, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
17. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501